

**FORS TILIDA RAVISH SO‘Z TURKUMIGA MANSUB ARABCHA
O‘ZLASHMALAR TAHLILI
(SAMAD BEHRANGIYNING "ماهى سياه كوچولو" HIKOYASI ASOSIDA)**

Nuriddinov Nodir Nurmat o‘g‘li

TDSHU Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

nur_nn@mail.ru

Nig‘matillayev Muhammadali Bahodir o‘g‘li

TDSHU Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik
fakulteti 2-kurs fors-ingliz guruhi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy fors adabiyotining taniqli namoyandasi sanalgan Samad Behrangiyning "ماهى سياه كوچولو" asaridagi ravish so‘z turkumiga mansub arabcha o‘zlashmalar o‘rganib tadqiq etildi. Asardan arabcha o‘zlashma ravishlar va fors tilida ravishlashgan o‘zlashmalar ajratib olingach, ularning yasalish va struktur jihatdan tasnifi amalga oshirildi.

***Tayanch so‘zlar:** ravish so‘z turkumi, tub ravish, yasama ravish, qo‘shma ravish, o‘zlashma arabizmlar, tanvin-fatha, predlogli ravishlar, turkumlararo shakldoshlik.*

ABSTRACT

In this article, Arabic borrowed adverbs in the work of Samad Behrangi, a well-known representative of modern Persian literature, "ماهى سياه كوچولو" were studied and researched. After separating the Arabic adverbs from the work, their construction and structural classification was carried out.

***Key words:** adverbs, simple (unproductive) adverbs, derivative adverbs, compound adverbs, borrowed adverbs, tanvin-fatha, prepositional adverbs, homonymity in borrowed adverbs.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучены и исследованы арабские заимствованные наречия, в творчестве Самада Бехранги, известного представителя современной персидской литературы, "ماهى سياه كوچولو". После отделения арабских наречий от произведения они были классифицированы по структуре и составу.

Ключевые слова: наречия, простые наречия, производные наречия, сложные наречия, танвин-фатха, предложные наречия, омонимность в заимствованных наречиях.

KIRISH:

Fors tilida ravish harakat yoki holatning tarzini va sifatlarning belgisini o'zida ifoda etuvchi eng muhim gap bo'lagi sanaladi. Ravishlar semantik va sintaktik mezonlar nuqtai nazaridan fors tilida boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Biroq ravishlarni so'z turkumi sifatida aniqlashda ularning morfologik va so'z yasalishiga oid xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etmaydi. Ravishlarni ot va sifat turkumlari bilan solishtirsak, fors tilida ularni morfologik jihatdan ajratishda qiyinchiliklar tug'iladi¹.

Tadqiqotning maqsadi: Samad Behrangiyning "ماهى سپاه کوچولو" asaridan arabcha o'zlashma ravishlar ajratib olinadi. Ularni tadqiq etishda avvalo ravishlarning tarkibiy tuzilishi va yasalishiga ahamiyat qaratiladi. Ikkinchi qismda esa o'zlashmalarning qaysi tilda ravishlashganiga e'tibor beriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Samad Behrangiyning "ماهى سپاه کوچولو" asarini o'rganish natijasida ma'lum bo'ladiki, bu asarda qo'llangan jami o'zlashma ravishlar 120 tani tashkil etadi. Soha bilimdonlarining qarashlariga tayansak, aslida fors tili leksikasida sof forsiy ravishlar deyarli uchramaydi. Asarda ham biz kuzatgan ravishlarning ko'pchiligi bevosita arab tili bilan bog'lanadi.

I. Manbadan to'plangan ravishlar tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratildi:

1. Tub ravishlar: سالم *sālem* "eson-omon", آخر *āxer* "oxiri", "va nihoyat", اول *avval* "oldin", "avvalo", دایم *dāyem* "doim", مات *māt* "lol qolib", متحیر *motahayyer* "hayratlanib", بعد *ba'd* "keyin", حالا *hālā* "hozir", حتما *hatman* "shubhasiz", آخرش *āxeraš* "oxiri, axiyri", البته *albatte* "albatta", اولش *avvalaš* "avvaliga", اصلا *aslan, aslā* "aslo", واقعا *vāye'an* "haqiqatan", مخصوصا *maxsususan* "ayniqsa", الان *alān* "hozir", قبلا *yablan* "oldin", مثلا *masalan* "masalan", بعدش *ba'daš* "so'ngra".

(4) اولش دست و پایش را گم کرد، اما بعد شروع کرد به شنا کردن و دور برکه گشت زدن. *Avvalaš dast-o pāyaš-rā gom kard, ammā ba'd šoru' kard be šenā kardan va dour-e berke gašt zadan* "Oldin oyoq va qo'lini berkitdi, lekin keyin suzib ko'lmak atrofida aylana boshladi".

¹ Ю.А.Рубинчик Грамматика современного персидского литературного языка // "Восточная литература". – Москва, 2001. – С. 291.

2. Yasama ravishlar. Fors tilida ravishlar bir qancha usullar orqali yasalishi mumkin:

a) “forscha prefiks + arabcha ism” tuzilishidagi yasama ravishlar:

اختيار *biextiyār* “istamasdan”, بانتبلی *bātambali* “dangasalarcha”, بامیلى *bāmeyli* “xohlab”, باعجله *bāajale* “shoshilib”.

(5) آنقدر خنده دار راه میرفت که ماهی بی اختیار خنده اش گرفت و گفت. *Ānyadr xandedār rāh mi-raft ke māhi bi-extiyār xande-aš gereft-o goft* “Shunchalar kulgili yurar ediki, baliq **o‘zi istamay** kulib yubordi va aytdi”.

b) “arabcha o‘zlashma + forscha yoy suffiksi” tuzilishidagi yasama ravishlar:

مدتی *moddati* “bir muddat”, زیادی *ziyādi* “ko‘p”, فوری *fouri* “shoshilib”, “darhol”.

(6) ماهی کوچولو مدتی به هیاهوی آنها گوش داد و مدتی هم آبتنی بچه‌ها را تماشا کرد و راه افتاد. *Māhi-ye kučulu moddati be hayāhu-ye ānhā guš dād va moddati ham ābtani-ye baččehā-rā tamāšā kard va rāh oftād* “Kichkina baliq **bir muddat** ularning hayyohusi (baqir-chaqiri)ga quloq tutdi va yana **oz muddat** bolalarning cho‘milishini tomosha qildi va yo‘lga tushdi”.

Shu o‘rinda nigohimizni bir o‘ringa qaratishni joiz deb topdik. Fors tilidagi ismlarga be prefiksi qo‘shilganda so‘z butunlay ravish turkumiga o‘tadi:

کلی به کلی *be kolli* “butunlay” (forscha prefiks + arabcha ism + yoy-e masdari)

تیز به سرعت *be sor‘at* “tez” (forscha prefiks + arabcha ism)

ماهی‌خوار مثل برق سر رسید و این بار چنان به سرعت ماهی را شکار کرد و قورت داد که تا مدتی (9) *Māhixār mesle bary sar rasid va in bār čonān be sor‘at māhi-rā šekār kard va yurt dād ke tā moddati nafahmid če balāyi bar saraš āmade* “Chag‘alay chaqmoq singari tez yetib oldi va bu safar shunday **tezlik bilan** baliqni tutdi-da yutib yubordiki, bir muddat boshiga ne balolar kelganini tushunmay qoldi”.

3. Qo‘shma ravishlar:

a) “forscha son + arabcha ism” tuzilishidagi qo‘shma ravishlar:

یکصد دفعه *yekdaf‘e* “darhol”, “kutilmaganda”, “birdaniga”, یکصدا *yeksedā* “bir ovozdan”, یک وقت *yekvayt* “bir mahal”, “to‘satdan”, “mabodo” (inkor gaplarda).

(7) *Yeksedā* goftand: *Sobh be xeyr!* “**Bir ovozdan** aytdilar: Xayrli tong!”.

b) “forscha olmosh + arabcha ism” tuzilishidagi qo‘shma ravishlar:

همین‌طور *ānvayt* “u vaqtda”, همین‌حالا *haminhālā* “shu zahoti”, “ayni vaqtda”, همین‌طور *hamintour* “shu tarzda”, این‌طور *intouri* “shu yo‘sinda”, اینقدر *inyad(a)r* “bunchalik”, آن‌قدرها *ānyadrhā* “juda ko‘p”, “unchalik”, آن‌قدر *ānyad(a)r* “unchalik”.

(7) مرغ سقا گفت: من نمیخواهم همین‌حالا شمارا قورت بدهم. *Mory-e sayā goft: Man namixāham haminhālā šomā-rā yurt bedeham* “Saqo qush aytdi: Men **shu zahoti** sizlarni yamlab yutishni istamayman”.

چقدر *har čeyadr* “qanchalik”, “har qancha” qo‘shma ravishi tarkibida bir emas, ikkita olmosh ham kelishi mumkinligi kuzatildi:

مادر بزرگ هم خوابش برد، اما ماهی سرخ کوچولویی هر چقدر کرد، خوابش نبرد، شب تا صبح
(10) *Mādarbozorg ham xābaš bord, ammā māhi-ye sorx-e kučului har čeyadr kard, xābaš nabord, šab tā sobh hame-aš dar fekr-e daryā bud* “Buvisining ham uyqusi kelib qoldi, biroq jajji qizil baliqcha har qancha urinmasin, uyqusi kelmadi, tong otguncha barchalari dengiz haqida o‘ylashardi”.

c) “forscha sifat + arabcha ot + yoy suffiksi” tuzilishidagi qo‘shma ravishlar:
badjuri “yomon”, “juda qattiq”.

مāhixār did خوار دید بدجوری کلاه سرش رفته، افتاد دنبال ماهی سیاه کوچولو (9)
badjouri kolāh saraš rafte, oftād dombāl-e māhi-ye siyāh-e kučulu “Chag‘alay juda qattiq aldanganini ko‘rdi, kichkina qora baliqni izlay boshladi”.

d) “arabcha sifatdosh + hozirgi zamon sifatdoshi” tuzilishidagi qo‘shma ravishlar:

moallayzanān “muallaq holatda”, “osilib”.

حالا دیگر خوشش می آید که معلق زنان از آبخارها پایین بیفتد و باز شنا کند (6)
Hālā digar xošaš mi-āyad ke moallayzanān az ābšār-hā pāyin biyoftad va bāz šenā konad “Tag‘in hozir osilganča sharsharalardan pastga sakrashni va yana suzib ketishni istayapti”.

4. Birikma ravishlar: Birikma ravishlarning ham izofa yordamida, ham bitishuv munosabati orqali yasalganini kuzatish mumkin.

a) izofa orqali yasalgan birikma ravishlar:

nesf-e šab “yarim kechasi”, *sobh-e zud* “erta tongda”, صبح زود

(6) *Nesf-e šab bidār* نصف شب بیدار شد و دید ماه، توی آب افتاده و همه جار را روشن کرده است.
šod va did māh tu-ye āb oftāde va hame jā-rā roušan karde ast “Yarim kechasi uyg‘onib ketdi va oy suvga tushib ketganini va hammayoqni yoritib yuborganini ko‘rdi”.

b) bitishuv asosida ohang yordamida yasalgan birikma ravishlar:

kamiba‘d “birozdan keyin” وقت خیلی *xeyli vayt* “ancha vaqt”.

ماهی ریزه از دهان ماهی خوار بیرون پرید و در رفت و کمی بعد در آب افتاد، اما هر چه منتظر ماند
(9) *Māhi-ye rize az dahān-e māhixār birun parid va dar raft va kami ba‘d dar āb oftād, ammā har če montazer mānd az māhi-ye siyāh xabari našod* “Mayda baliq chag‘alay og‘zidan tashqariga sakrab qochib ketdi, ozginadan keyin suvga tushdi, biroq qancha kutmasin, qora baliqdan darak bo‘lmadi”.

d) predlog asosida yasalgan birikma ravishlar:

tā be hāl “hozirga qadar”, *tā ān vayt* “u vaqtgacha”, *be har hāl* “har holda”:

دست و پا زد تا از جنب و جوش افتاد، اما از ماهی سیاه کوچولو هیچ خبری نشد و تا به حال هم هیچ خبری نشده... (10) *Dast-o pā zad tā jomb-o juš oftād, ammā az māhi-ye siyāh-e kučulu hič xabari našod va tā be hāl ham hič xabari našode* “Horib charchaguncha qanot qoqib uchdi, ammo kichkina qora baliqdan hech bir darak bo‘lmadi va **shu vaqtgacha** hech ham xabar bo‘lmagan ...”.

II. Ikkinchi qismda esa o‘zlashmalarning qaysi tilda ravish turkumiga o‘tgani tadqiq etildi:

1. Arab tilida ravishlashib so‘ng fors tiliga kirgan so‘zlar:

Arab tilida ravish turkumiga o‘tib fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar ikki katta guruhga bo‘lindi:

1) *Arab tilidagi boshqa so‘z turkumlarining ravish vazifasini o‘tashi uchun shakliga kirishi*. Bunda so‘zning e‘robini zammali ko‘rinishdan fathali shaklga olib o‘tiladi, so‘z aniqlik artiklini olish-olmasligiga ko‘ra yana ikki kichik guruhchalarga ajratildi:

a) *tanvin-fatha bilan yasalgan ravishlar:*

hatman “albatta”, اصلا *aslan* “aslo”, “aslida”, واقعا *vāye’an* “chindan”, maxsus maxsus *maxsus* “ayniqsa”, قبلا *yablan* “oldin”, مثلا *masalan* “masalan”.

(4) *Az dar-e digari āmadand va goftand: Aslan to bixod be dar-o divār mizani* “Boshqa eshikdan keldilar va dedilar: **Aslida** sen bekorga eshik-u devorni taqillatyapsan”.

Tanvin-fathali ravishlar arab tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashgan bo‘lib, ularning deyarli ko‘pchiligi fors tilida yasalmagan. Yana bir o‘ziga xos jihat shundaki, o‘rganish asnosida ayrim so‘zlar so‘ngidagi tanvin-fathaning aytilishida forschalashtirish yuz bergani kuzatildi. Masalan, حالا *hālā* “endi”, اصلا *aslā* “aslo”, “aslida”. Tanvin nafaqat yozuvda, balki talaffuzda ham tushib qoladi. Bu holat tilda mustahkamlangan va lug‘atlarda qayd etilgan².

(5) *Hālā agar māhi vāred-e kise šod, digar rāh-e birun āmadan nadārad* “Agar hozir tumshug‘iga baliq kirib qolsa, qaytib chiqish yo‘li yo‘qmi?”

b) *o‘ziga aniqlik artiklini olib, tanvinsiz fatha bilan yasaluvchi ravishlar (biroq forscha talaffuzda fatha yo‘qolib ketadi):*

البتة *albatte* “shubhasiz”, الآن *alān* “shu on”.

(2) *Albatte xeyli čizhā ham az in-o ān yād gerefte-am* “**Albatta**, undan-bundan ko‘p narsalarni o‘rgandim”.

² Ю.А.Рубинчик Грамматика современного персидского литературного языка // “Восточная литература”. – Москва, 2001. – С. 294.

2) Arabcha old ko‘makchi bilan yasalgan ravishlar:

بالاخره *belaxare* “axiyri”, “nihoyat”.

Hozirgi fors tilida arabcha old ko‘makchilar bilan yasalgan ravishlar asosan kitobiy uslub uchun qo‘llanadi. Morfologik nuqtai nazardan esa fors tilida ular morfemalarga ajratilmaydi va tub so‘zlar hisoblanadi³:

(7) ماهی سیاه زود آنهارا شناخت و گفت: صبح به خیر! بالاخره دنبال من راه افتادید! (7) *Māhi-ye siyāh zud ānhā-rā šenāxt va goft: Sobh be xeyr! Belaxare dombāl-e man rāh oftādid* “Qora baliq ularni tezda tanidi-yu, aytdi: Xayrli tong! Nihoyat, meni izlab yo‘lga tushibsizlar-da”!

2. Arab tilidan o‘zlashib so‘ng fors tilida ravishlashgan so‘zlar:

Arab tilida ot turkumi sanalgan so‘zlarning fors tilida ravish turkumi vazifasini o‘tashi: صبح *sobh* “ertalab”, وقتها *vaythā* “ba‘zan”, فوری *fourī* “shoshilinch tarzda”, مدتی *moddati* “bir muddat” صبح زود *sobh-e zud* “erta tongda”, خیلی وقت *xeyli vayt* “anchoq vaqt”.

(2) صبح زود آفتاب نزده ماهی کوچولو مادرش را بیدار کرد و گفت. (2) *Yek ruz sobh-e zud āftāb nazade māhi-ye kučulu mādaraš rā bidār kard-o goft* “Bir kuni quyosh chiqmasidan erta tongda kichkina baliq onasini uyg‘otib aytdi”.

Arab tilida sifat yoki sifatdosh sanalgan so‘zlarning fors tilida ravish turkumi vazifasini o‘tashi: مات *māt* “lol qolib”, متحیر *motahayyer* “hayratlanib”, دایم *dāyem* “hamisha”, آخرش *āxer* “axir”, آخر *āxer* “axir”, سالم *sālem* “eson-omon”, خارج *xārej* “tashqarida”, زیادی *ziyādi* “ko‘p”, آخراش *āxeraš* “oxiri”.

(7) چند دقیقه، مات و متحیر تاریکی را نگاه کرد. (7) *Čand dayiye, māt-o motahayyer tāriki-rā negāh kard* “Bir necha daqiqa hayratlanib qorong‘ulikka qarab qoldi”.

Arab tilida ism (ot, sifat, sifatdosh) sanalgan ayrim so‘zlar fors tilida ham ayni shu turkumlarga oid so‘zlar safida ko‘rilsa-da, biroq izofiy birikma tarkibida ravishlar singari o‘rin yoki payt holi vazifasida kelganiga guvoh bo‘lish mumkin:

طرف *taraf* “tevaragida”, دور *dour* “paytida”, دنیا *donyā* “dunyoda”, موقع *mouye* “o‘rtasida”, وسط *vasat* “o‘rtasida”

ته دریا ماهی پیر دوازده هزار تا از بچهها و نوههایش را دور خودش جمع کرده بود و برای آنها قصه (2) *Tah-e daryā māhi-ye pīr davāzdah hezār tā az bačče-hā va navehā-yaš-rā dour-e xodaš jam' karde bud va barāye ānhā yesse migoft* “Dengiz tubida kekxa baliq o‘n ikki ming bolalari va nevaralarini o‘z atrofiga to‘plagan edi va ularga qissa aytib berardi”.

³ Ю.А.Рубинчик Грамматика современного персидского литературного языка // “Восточная литература”. – Москва, 2001. – С. 294.

XULOSA: "ماهى سياه کوچولو" asaridagi o'zlashma ravishlar tahlili natijasida bu asarda takrorlarsiz 63 ta arabcha o'zlashma ravishlar ishlatilgani aniqlandi {asarda takrorlari bilan 120 o'rinda arabcha o'zlashma ravish qo'llangan}. Hikoyadagi arabiy ravishlar tarkibiy jihatdan tub (19 ta), yasama (9 ta), qo'shma (13 ta) va birikmali (7 ta) kabi 4 guruhga bo'lib o'rganildi. Qo'shma ravishlarni yasashda forscha olmoshlar va sonlardan keng foydalanilgan. Asarda qo'llangan qo'shma ravishlarning deyarli 23%i forscha sonlar bilan va 60% dan oshig'i esa forscha olmoshlar bilan yasalgan. Yasama ravishlarning 1/3 qismi yoy suffiksi orqali, 2/3 qismi esa prefikslar asosida hosil qilingan.

Arab tilida ravishlashib, so'ng fors tiliga o'zlashgan so'zlarning tahlili natijasida ularning ikki xil turi aniqlandi: a) So'zlarning nasb {tushum kelishigi} shaklini qabul qilishi orqali (9 ta); b) so'zlarning arabcha predloglarni qabul qilishi orqali (1 ta). O'zlashma ravishlarning birinchi turi, ya'ni tanvin-fathali shakl sermahsul (90%), ikkinchi turi predlogli ravishlar esa o'ta kammahsul (10%) ekani aniqlandi. Tahlil davomida fors tilida ravishlashgan o'zlashmalarni ajratish ancha mushkil ish ekani ma'lum bo'ldi, chunki ularning ko'pchiligi ot – ravish, sifat – ravish so'z turkumlari oralig'idagi so'zlardir. Bunday ravishlar gap tarkibida hol vazifasini o'tagan payt ularning ravish ekanligi aniq seziladi.

REFERENCES:

1. Ю.А.Рубинчик. Грамматика современного персидского литературного языка // "Восточная литература". – Москва, 2001.
2. Ali Akbar Dehkhoda. Loghatnāme-ye Dehkhoda – Iran, Tehran. 1931.
3. Mohammad Mo'in. فرهنگ فارسی معین "Farhang-e fārsi-ye Mo'in" – Iran, Tehran. 1972.
4. Jibrān Mas'ud. معجم الرائد "Mu'jamu ar-raaid" // (دار العلم) Daaru al-ilm. – Livan (Lubnon), Bayrut, 1992 (ilk nashr 1964).
5. معجم الوسيط "Mu'jamu al-vasit" // (مكتبة الشروق الدولية) "Sharq xalqaro kutubxonasi". – Misr, Qohira, 2011.
6. Nuriddinov, N. (2019). Reduplication of adverbs, past and present participles in Persian language. *Theoretical & Applied Science*, (12), 634-639.
7. Nodir Mr, N. (2020). Structural-semantic analysis of polynomial verbal copulative phraseologies in Persian language. *The Light of Islam*, 2020(1), 170-177.
8. D.Ahmedova, X. Alimova, N. Nuriddinov. Reduplication in Persian language // PalArch's Journal of Archaeology of Egypt / Egyptology (PJAEE). Vol. 17 No. (7) (2020).

9. H.V. Mirzaxmedova, A.I. Nishanbayeva, N.N. Nuriddinov, B.F. Jafarov // Fors tilida arabiy o‘zlashmalar yordamida yasalgan terminlar // Инновационные подходы в современной науке: сб. ст. по материалам XCV Международной научно-практической конференции «Инновационные подходы в современной науке». – № 11(95). – М., Изд. «Интернаука», 2021.
10. Нуриддинов Н.Н. Деривативная редупликация в персидском языке (на примере имен существительных, прилагательных и числительных) // Вестник Челябинского государственного университета. – 2012. – №. 33 (287).